5"

# MAHMUD QOSHG'ARIYNING "DEVONU LUG'OTIT TURK" ASARIDA MAQOLLARNING QO'LLANILISHI

**Hojiyeva Muxlisa**
**hojiyeva.m@icloud.com**

## ANNOTATSIYA

Ushbu ilmiy ishda jahonning buyuk lug'at va grammatikalari bilan bemalol bellasha oladigan Mahmud Qoshg'ariyning «Devonu lug'otit turk» asaridagi qo'llangan maqollari hozirgi kunda ham, o'z qiymatini, tarbiyaviy-ma'rifiy ahamiyatini yo'qotmaganligini, ko'p yillik tarixi, etnografiyasi va maishiy hayotini o'zida aks etganligi xususida fikr mulohazalar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Turkiy xalqlar, maqolshunoslik, semantik, grammatik, tarix, etnografiya, tilning rivojlanishi, til meyorlari, fonetika, morfoligiya.

## ANNOTATION

In this scientific article, the articles used by Mahmud Kashgari in "Devonu lug'otit turk", which can easily compete with the great dictionaries and grammars of the world, have not lost their value, educational and enlightenment significance.

There are opinions that it reflects the history, ethnography and everyday life.

**Keywords:** Turkic peoples, proverbs, semantics, grammar, history, ethnography, language development, language norms, phonetics, morphology.

Ma'lumki, o'zbek xalqi jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan va bugun ham jahonshumul yutuqlarni qo'lga kiritayotgan qadimiy turkiy

xalqlardan biri sanaladi. Bu xalqning jahonning «Ashtadx`yai», «Kratil», «Poetika», «Ritorika», «Alqomus», «Mitridat», «Qomus» kabi buyuk lug‘at va grammatikalari bilan bemalol bellasha oladigan «Devonu lug‘otit turk» asari ham muhim o‘rin tutadi. Yirik frnasuz sharqshunos olimi P.K.Juzebu asar haqida shunday degan edi: «Mahmudning bu tekshirishlari shu qadar keng va chuqurki, hatto bunday asar XIX asrda yozilganida ham unga shon-sharaflar bo‘lardi. Uning asari bamisoli turkiy qomusdir». Mahmud Qoshg‘ariy to‘plagan maqollar juda qadimdan turkiy tillarda mavjud bo‘lgan va ular turli urug‘ va qabila vakillaridan yozib olingan. Binobarin, eng qadimgi turkiy xalqlarning til xususiyatlarini o‘rganishda bu materiallar katta ahamiyat kasb etadi. Chunki ular hozirgi o‘zbek adabiy tilining rivojlanishida, tilme`yorlarining har taraflama o‘sishida o‘ziga xos rol` o‘ynaydi.

Kichikda qatыg‘lansa, ulg‘azu sevnur [1, 311] Bu maqol

yoshlikda tirishib, harakat qilgan odam katta bo‘lgach sevinadi, degan ma`noga ega. Mehnatsevarlikka undab aytilgan bu maqol hozirgi kunda Mehnatning tagi rohat yoki Mehnat qilsang, rohat ko‘rasan; Mehnat – rohatning poydevori; Mehnat – farog‘at chirog‘i kabi maqollarga [2, 168-169] semantik jihatdan mos keladi [2, 168- 169].

Maqol tarkibida qo‘llangan kichik aslida belgi anglatuvchi so‘z bo‘lib, bu so‘z maqolda konversiya natijasida otga ko‘chgan va “yoshlik” ma`nosida qo‘llangan. Bu so‘z XI asrda ko‘p ma`nolik xususiyatga ega bo‘lib, qadimgi

yodnomalarda kichiglik, kichig tut shakllarida ham uchrab, bosh leksik ma`no bilan bog‘liq holda yoshlik, bolalik, bir oz, kam, kamtarlik kabi ma`nolarni ham ifodalagan. Keyinchalik “kichik” so‘zining ma`no doirasi toraygan. XV-XVI

asrlardayoq bu so‘z go‘daklik yoshiga nisbatan qo‘llana boshlagan edi. Kichik

leksemasi hozirgi o‘zbek adabiy tilida hajm-o‘lchovi normal darajadan past, kattaning aksi ma`nosi bilan birlashadi, vobasta bo‘ladi [3, 87]. Keyinchalik davrlar o‘tishi bilan hozirgi o‘zbek adabiy tilida umuman yoshlik ma`nosida qo‘llangan kichik+lik, yigit+lik so‘zlari ma`no jihatdan differentsiallashgan, degan

xulosaga kelish mumkin. Maqol tarkibida uchraydigan qatыg'lansa(qatыg'+lan+sa) so'z shakli – qattiq harakat qilsa, tirishsa ma`nolarini bildiradi. XI-XIV asr yodnomalari tilida sifatdan – la qo'shimchasi yordamida yasalgan fe`llar juda ko'p uchraydi va ular o'zakdan anglashilgan xususiyatga ega bo'lish ma`nosini bildiradi, hozirgi vaqtga kelib bu so'zning fe`l shakli iste`moldan chiqib ketgan. Shu maqol tarkibida qo'llangan ulg'azu (ulg'a+z//y+u) – harakat belgisini bildiruvchi so'z bo'lib, uning tarkibida d>z>z>//y fonetik hodisasi mavjud bo'lib, Mahmud Qoshg'ariy bu so'zni ma`lum turkiy urug'-qabila tillariga xos deb ta`kidlagan edi [1, 67, 68, 137]. Ulg'azu leksemasining o'ziga xos morfologik xususiyati shundaki, uning tarkibida qadimgi yodgorliklar tili uchun harakterli bo'lgan ravishdoshga xos-u qo'shimchasi ishlatiladi. Bu shakl XV asrgacha qadimgi o'zbek tilida faol iste`molda bo'lib ma`nosi va funktsiyasiga ko'ra hozirgi o'zbek adabiy tilida faol qo'llanuvchi –gach formali ravishdoshga teng keladi.

Maqol tarkibida qo'llangan yana bir so'z – sevnur – hozirgi-kelasi zamon shaklidagi fe`l bo'lib, harakatning bajarilishi biror muddat bilan chegaralanmay, u sub`ektning doimiy harakatiga aylanadi, -r qo'shimchali hozirgi-kelasi zamon fe`lining bunday qo'llanishi ko'p hollarda maqol va hikmatli iboralarda uchrashini tilshunos olim Sh.Shukurov ham alohida ta`kidlagan edi. Xulosa qilib aytganda, bizning qisqacha kuzatishlarimiz shundan dalolat beradiki, "Devoni lug'atit turk"

asarida qo'llangan ko'pgina maqollar xalqning deyarli ming yillik tarixini, hayotini, urf-odatini aks ettirgan holda, til taraqqiyoti natijasida ayrim lug'aviy, fonetik va morfologik o'zgarishlar bilan bizgacha yetib kelgan. Biz bu asarni xalqimizning madaniy merosi desak yanglishmagan bo'lamiz. Bunday ulug' mutafakkir bobolarimizning nodir asar namunalarini asrab-avaylash bilan bir qatorda, unda keltirib o'tilgan ibratli maqol, masal, pand-nasihatlarni o'qib o'rganib hayotimizga dasturil amal qilsak foydadan xoli bo'lmaydi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Abdullaev H. «Qutadg'u bilig»dagi qadimiy maqollar haqida // Til va adabiyot ta'limi. 2004, 1-son.
2. Abdurahmonov X. O'zbek xalq og'zaki ijodi asarlarining sintaktik xususiyatlari bo'yicha kuzatishlar. T., «Fan», 1971.
3. Berdiyorov H., Rasulov R. O'zbek tilining paremiologik lug'ati. T., «O'qituvchi», 1984.